

BOLANI HAR TOMONLAMA TARBIYALASHDA O'YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Smetullaeva N.M.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Qonliqo'l tumani 13-son maktab amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya. *Bu maqolada bola tarbiyasida o'yin faoliyatining ahamiyatli jihatlari, o'yinlarning turlari, o'yinlar orqali paydo bo'ladigan shaxs sifatleri va.h. yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *bola, tarbiya, o'yin, uyin faoliyati, ahloq, omil, xulq-atvor, ta'lim, tarbiya.*

O'yin - kattalar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda kengdan foydalaniladigan bolalar faoliyatining bir turi hisoblanadi. O'yinda bola shaxs sifatida shakllana boradi.

Masalan, bolada o'yin faoliyati natijasida shaxs sifatlaridan ular o'z harakatlarini boshqarishni o'rganadi. O'yinda idrok, tafakkur, xotira, nutq rivojlanadi, ularsiz bolaning komil inson bo'lib shakllanishi mumkin emas. Tarbiyachi shuni unutmasligi kerakki, bolalarning har qanday faoliyati ma'lum bir vazifani bajarishga yo'naltirilgan. Bola o'z faoliyati orqali tajriba to'playdi, ko'pchilik narsalarni ota-onasidan, tarbiyachilaridan o'rganadi. Bola qo'g'irchoqqa kosadan suv ichiradi, keyin keyin uni kubik bilan almashtiradi. Bu bolaning o'yin vazifalarini yuqori intellektual darajada bajarayotganligini bildiradi. O'rta guruhda bolalar o'yinlari ancha murakkablashib har xil bo'lib boradi. Nutqning rivojlanishi, tarbiyalanuvchilarning bilim zahiralari pedagoglarga har xil qiyinroq vazifalarni, o'yinlarni tashkillashtirishiga yordam beradi.: syujetli-rolli, didaktik, harakatli.

Bolalar o'yin turlarini xarakter xususiyatlariga ko'ra ajrata boshlaydi va to'g'ri kelgan o'yin usullarini va vositalarini o'z faoliyatida qo'llay boshlaydi. Bolalarda o'yinning to'liq darajada rivojlanishi qachonki tarbiyachi tizimli turda va maqsadga yo'naltirilgan holda bu faoliyatni shakllantirsa gina amalga oshadi.

Pedagogning eng birinchi vazifasi - o'yin orqali bolaning ijodiy faolligini ta'sirlantirish. Bunga o'yinni har xil rollarga ajratish misol bo'la oladi: ijtimoiy hayotning har xil sohalaridan, har xil adabiy asarlardan, ertaklardan, shu bilan bir qatorda reallikdagi personajlar bilan ertakdagilarni bog'lashlar kiradi. Masalan, bolalar bog'chasi tarbiyachisini va militsionerlarni, o't o'chiruvchi va

mastan kampirni, Buratino va shifokorni.

Bunday tarzda, bunday rollarni umumiy syujetlarga kiritish, bolalarda, ularning hayolini, fantaziyasini faollashtiradi, har xil narsalarni o'ylab topishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda tarbiyachi bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishlarini ham inobatga olishi darkor.

O'rta guruhda tarbiyachi bolalarga dars paytida yoki bo'lmasa darstan tashqari didaktik o'yinlarni tashkillashtiradi. Bunda bolalar har xil bilishga bo'lgan mashqlar, shakllarni ajratishni, hajmni, rangni, fazoni, tovushlarni ajratishni o'rganadi. Didaktik o'yinlar yordamida bolalar narsalarni ma'lum bir guruhlariga kiritishni, ularni taqqoslashni o'rganadi; ularda diqqatni bir narsaga qaratish, diqqat, talabgarlik, bilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Dasrlab o'yinni guruhda yoki bo'lmasa sayr paytida yoki bo'lmasa boshqa paytlarda tashkillashtirishning targ'ibotchisi bo'ladi. Keyinchalik bolalarning o'zlari pedagog yordamisiz o'yinlarni o'ynashi mumkin. Musiqiy-didaktik o'yinlarni o'rganayotgan jarayondan to'plangan tajribalari har xil musiqiy faoliyatni olib borganda ularni muvaffaqiyatli bajarishlariga yordam beradi [Muxina: 128].

O'yin - faoliyatning shunday turiki, u bola shaxsining rivojlanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Shu orqali bolaning psixikasi va psixik jarayonlari rivojlanadi.

Bolaning chiqicha olmasligini, uning chetga chiqib qolishini, dunyoga ko'nika olmasligini qanday bartaraf qilish mumkin? Psixologlarning fikricha, bu kritik vaziyatdan chiqishning yagona yo'li bu: kattalar bolalar bilan iliq munosabat o'rnatishi lozim. Bunda imkoniyatni o'yin beradi, chunki u bolaning shaxs sifatida o'sishini ta'minlaydi.

Tarbiyachilarga nafaqat o'yinlarni o'tkazish va tashkillashtirish lozim, balki ota-onalarga bolalar o'yinlarida ishtirok etishni ham tushuntirish ishlarini olib borishi lozim. O'yinda bolaning xulq-atvorini kuzata o'tirib kattalar insonlararo munosabatlardan, har-xil ijtimoiy vaziyatlardan namunalar ko'rsatish uchun yangi syujetlar o'ylab topishadi.

Maktabgacha yoshida bolalar kattalarning dunyosiga yo'naltirilgan bo'ladi va uni o'yinda amalga oshiradi. Ijtimoiy haqiqatlikni qayta tiklash vositasi bu o'yin harakati hisoblanadi. Bolalarni kattalardan ayirish, yangi ijtimoiy vaziyatlarning rivojlanishiga olib keladi. U nima bilan yakunlanadi? Ilk bora bolalar o'z oilaviy dunyosidan tashqariga chiqadi va katta kishilar dunyosi bilan aloqa o'rnatadi. Bolaning birgalikdagi harakatini boshlaydigan katta odamlar dunyosida uchraydigan ijtimoiy munosabatlar ideal shaklga aylanadi. L.S. Vigotskiyning

ta'kidlashicha, ideal shakl bu ob'ektiv haqiqatlikning bir bo'lagi bo'lib, bu shu bolaning kirishga intilayotgan sohasi hisoblanadi [Obuxova:182]. Maktabgacha yosh davrida bu ideal shakl katta kishilar olami hisoblanadi.

O'yin bu shunday faoliyatki, unda bolalar dastlab hissiy, keyin esa barcha insoniy munosabatlar tizimini intellektual tarzda o'zlashtirib oladi. O'yin - bu haqiqatlikni uni qayta tiklash va modellashtirish orqali o'zlashtirishning alohida bir shakli hisoblanadi. D.B. El'konin tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, o'yin bu barcha bolalarning hayotining umumiy shakli emas, u tarixiy bilim.

Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstruktorlik o'yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda maxsus layoqatlarning birlamchi rivojlanishi ko'zga tashlana boshlaydi. Bolaning uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Обухова Л.Ф. Детская (возрастная) психология. - М.: Российское педагогическое агентство, 1996. - С. 182
2. Мухина В.С. Игрушка как средство психологического развития ребенка. - М., 1988. - С. 128.